

NUTQNING ME'YORIY RIVOJLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

Rahimjonova Munavvar

Namangan davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika: logopediya yo'nalishi talabasi

@uzuz68864@gmail.com

+998930461503

N.B.Goipova

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22295981>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda nutqning shakllanishi, me'yoriy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar, nutqning buzilish sabablari va nuqsonlarning oldini olish haqida keng yoritilgan. Bunda nutq apparatining biologik butunligi, tashqi muhit, muloqot yetishmovchiligi va zamonaviy texnologiyalarning nutq boyligiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, bu maqolada bolalarning nutqiy nuqsonlarining oldini olish, Korreksion-pedagogik yondashuvlar orqali nutqiy faollikni oshirish masalalari ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: biologik omillar, tashqi muhit, nutq apparati, korreksion yondashuv, zamonaviy texnologiyalar.

FACTORS AFFECTING THE NORMATIVE DEVELOPMENT OF NUT

Rahimjonova Munavvar

Scientific Supervisor: N.B.Goipova

goipovan42@gmail.com

NamSPI

Nutq - Inson kamolotida nutqning o'zni beqiyos. Muloqot va fikrlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Uni shunchaki tovushlar yig'indisi yoki oddiy muloqot quroli deb tushunish yetarli emas. Nutq inson tafakkurining tashqi ko'rinishidir. Ya'ni biz qanday fikrlasak, shunday gapiramiz; qanday gapirsak dunyoni shunday idrok etamiz.

Shuning uchun ham bolaning til chiqishi shunchaki mexanik jarayon emas, balki butun boshli miyaning, ayniqsa, asab tizimining ulkan g'alabasi hisoblanadi. Bolaning birinchi so'z aytishi ortida miya po'stlog'ining faol ishlashi, eshitish a'zosining tovushlarni aniq ajratishi va nutq apparatining normal holatlari yotadi. Nutq ham biologik va ijtimoiy omillarning birgalikdagi ta'siri o'laroq natijasida paydo bo'ladi. Nutq rivojlanishi uchun bola tanasida fiziologik imkoniyatlar mavjud bo'lishi kerak.

Аннотация: В статье представлен всесторонний обзор процесса формирования речи у детей, факторов, влияющих на ее нормальное развитие, причин возникновения речевых расстройств и мер по их профилактике. Анализируются биологическая целостность речевого аппарата, воздействие внешней среды, последствия дефицита общения и влияние современных технологий на развитие речи. Кроме того, в статье приводится научное обоснование профилактики речевых нарушений и стимулирования речевой активности детей с помощью коррекционно-педагогических методов.

Ключевые слова: биологические факторы, внешняя среда, речевой аппарат, коррекционный подход, современные технологии.

Biologik omillar.

Ayrim hollarda nutq rivojlanishining kechikishi genetik xarakterga ega bo'lishi mumkin. Agar ota yoki onada nutq kech chiqqan bo'lsa, bu bolada takrorlanish ehtimoli bor. Agar ota yoki onada nutq kech chiqqan bo'lsa, bu bolada takrorlanish ehtimoli bor. Onaning

homiladorlik paytidagi salomatligi, infeksiyalar, intoksikatsiyalar va tugʻruq jarayonidagi travmalar nutq markaziga bevosita taʼsir koʻrsatishi mumkin. Eshitish qobiliyati: Nutq taqlid asosida shakllanadi. Agar bola tovushlarni eshitmasa, u nutqni idrok eta olmaydi va takrorlay olmaydi.

Ijtimoiy-psixologik omillar.

Atrof-muhitning roli: Hatto bola mutlaqo sogʻlom tugʻilsa ham agar u ijtimoiy muhitdan uzib qoʻyilsa, uning nutqi rivojlanmaydi. Nutq rivojlanishi uchun bolada muloqot qilish istagi boʻlishi shart. Kattalar bolani suhbatga tortishi, undan javob kutishi va savollar berishi uning nutqiy faolligini oshiradi. Bola doimiy qoʻrquv, stress yoki oiladagi nosogʻlom muhitda yashayotgan boʻlsa, nutqiy tutilish kuzatilishi mumkin. Nutq — ijobiy his-tuygʻular bilan bogʻliq jarayondir. Bolaning diqqati qanchalik barqaror boʻlsa, u yangi soʻzlarni shunchalik tez oʻzlashtiradi. Diqqatning tarqoqligi nutqiy nuqsonlarni keltirib chiqaradi.

Zamonaviy texnologiyalar.

(gadjetlar, ijtimoiy tarmoqlar, sunʼiy intellekt): Nutq rivojlanishiga ikki xil ham ijobiy, ham salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Salbiy taʼsiri eng katta xavf — bu bolalarning telefonga qaramligi. Muloqotning kamayishiga ham olib keladi. Bola planshet yoki telefon bilan vaqt oʻtkazganda u faqat axborotni qabul qiladi. Nutq shakllanishi uchun esa faol muloqot ham kerak. Texnologiya toʻgʻri qoʻllanilsa, u nutqni boyitish uchun kuchli qurolga aylanishi mumkin. Maxsus logopedik dasturlar va mobil ilovalar oʻyin shaklida bolaning soʻz boyligini oshiradi. Sifatli audio-ertaklar va animatsion filmlar bolaning eshitish xotirasini rivojlantiradi. Soʻnggi yillarda olimlar tadqiqotlarida odam jinsiga qarab oʻng va chap yarimsharlar rivojlanishida farq borligini koʻrsatib berdi. Chap yarimshar asosan nutqiy funksiyani amalga oshiradi. Oʻng yarimshar esa koʻruv-fazoviy gnozisi amalga oshiradi. Nutq buzilishlarining kelib chiqishida maxsus sharoitlar katta rol oʻynaydi, yaʼni nutq kamchiliklarining kelib chiqishiga yordam beruvchi yoki toʻsqinlik qiluvchi omillar. Masalan, psixik travma taʼsiri ostidaboldada duduqlanish yuzaga kelsa, u tashqi sabab sifatida koʻriladi. Quyidagilar esa duduqlanishning kelib chiqishi uchun qulay sharoit boʻlib xizmat qiladi: bolaning somatik zaifligi, uning nevropatik organizmi (nervpsixik qoʻzgʻaluvchanlikning oshganligi), markaziy nerv sistemasiningerta organik jarohatlanishi asorati.

Nutq buzilishlarini kelib chiqishida nasliy omillar, odatda, ekzogen-organikva ijtimoiy omillar bilan birgalikda keladi. Shuningdek, ular ayrim nutqbuzilishlarning keltirib chiqarishda boshlovchi omil boʻlib xizmat qiladilar. Bularga xromosoma sindromi va nerv tizimining nasliy-degenerativkasalliklarida kuzatiluvchi nutq buzilishlari nomi bilan alohida guruhni tashkil qiladi. Xromosoma sindromlari (yoki xromosoma kasalligi) tugʻmahisoblanadi va odatda, progridient oqimga ega bolmaydi. Deyarli barchaxromosoma sindromlarida bolaning jismoniy, nerv-psixik rivojlanishida orqada qolish kuzatiladi, shuningdek, u yoki bu darajada nutq rivojlanishiham buziladi. Xromosoma sindromi ikki guruhga bolinadi:

Birinci guruh — autosoma strukturasini yoki sonining oʻzgarishi bilan bogʻliq sindromlar.

Ikkinchi guruh — jinsiy xromosomalarning oʻzgarishi bilan bogʻliq sindromlar.

Nutq buzilishlarini oldini olish.

Nutq poydevori homila davrida qoʻyilgani sababli, profilaktika onaning salomatligidan boshlanadi. Sogʻlom homiladorlik: Onaning infeksiyon kasalliklardan saqlanishi, zararli odatlardan (alkogol, tamaki) voz kechishi va kuchli dori vositalarini shifokor nazoratisiz ichmasligi. Emotsional barqarorlik Stress va kuchli hayajon homilaning asab tizimi

shakllanishiga salbiy ta'sir qiladi, bu esa kelajakda nutq markazlarining sustligiga olib kelishi mumkin. Bolaning jismoniy holatini muntazam nazorat qilish; Eshitish qobiliyatini tekshirish: Nutq nuqsonlarining aksariyati eshitishning pastligi sababli yuzaga keladi. Shuning uchun bolaning tovushlarga munosabatini erta yoshdan tekshirib turish lozim. Artikulyatsiya apparati nazorati. Til osti jilovining (uzdechka) qisqaligi yoki tish-jag' tizimidagi kamchiliklarni o'z vaqtida stomatolog va xirurg yordamida tuzatish lozim. Kattalar bola bilan gaplashganda so'zlarni buzib, "shirin" qilib aytmassligi kerak. Bola boshidanoq so'zning to'g'ri va aniq variantini eshitishi shart. Mayda motorikani rivojlantirish; qo'l barmoqlari harakati miyadagi nutq markazini qo'zg'atadi. Shuning uchun bolaga tugmalarni qadash, donachalarni saralash, plastilin bilan ishlash va barmoq o'yinlarini o'rgatish juda muhim. Korreksion-pedagogik yondashuv; logopedik yordam; logopedik massaj va artikulyatsion gimnastika orqali nutq apparati mushaklari mustahkamlanadi. O'yin orqali o'qitish; Zerikarli darsdan ko'ra muloqotni o'yin ichiga yashirish ko'proq samara beradi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda inson kamolotida nutqning o'rni va uni to'g'ri shakllantirishning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Nutq shunchaki muloqot vositasi emas, balki inson tafakkurining tashqi ko'rinishi bo'lib, u bizning dunyoni qanday idrok etishimizni belgilaydi. Ushbu murakkab jarayon biologik asab tizimi, genetik omillar va ijtimoiy muhitning o'zaro uyg'unligi natijasida yuzaga keladi. Nutq rivojlanishi nafaqat fiziologik salomatlikka, balki bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyoji va atrof-muhitning qo'llab-quvvatlashiga ham bog'liqdir. Zamonaviy texnologiyalar asrida gadjetlarga qaramlik kabi muammolar yuzaga kelayotgan bir paytda, jonli muloqot va o'yin orqali o'rgatish usullari har bir bolaning nutqiy imkoniyatlarini uyg'otishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Goipova, N. B. Q., & Meliboyeva, Y. E. Q. (2025). Nutq rivojlanishining buzilishlari va ularning sabablari. *Science and Education*, 6(5), 374-381.
2. Botirali ogli, X. A. (2025). Current Problems Of Inclusive Education: Challenges And Perspectives. *European International Journal of Pedagogics*, 5(06), 26-29.3. Olimjonovna, R. Z., & Xusnatilla o'g'li, N. Q. (2025). O 'SMIRLIK DAVRIDA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA BOILOGIK VA IJTIMOY OMILLARNING TA'SIRI. *Научный Импульс*, 3(33), 30-33.
3. Goipova, N. B. (2024). Inklyuziv ta'lim. *Gospital pedagogika: darslik*. Namangan, 252.
4. Rustamova, G. X. Q. (2025). Noto 'liq oilaning jamiyatdagi o 'rni va psixologik ta'siri. *Science and Education*, 6(4), 265-269.
5. Botirali ogli, X. A. (2023). 4. STEAM pedagogik texnologiyasi: integratsiya orqali o'rganishni kuchaytirish. *Innovative technologies in construction Scientific Journal*, 1(1).7. Olimjonovna, R. Z. (2025). SHARQ MUTAFAKKIRLARINING BOLA AXLOQIY KAMOLOTINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING ROLI HAQIDA QARASHLARI. ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G'OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR, 8(82), 133-136.
6. Goipova, N. B. Q., & Tursunaliyeva, M. U. B. Q. (2025). Bolalar nutqida sintaktik mexanizmlarning shakllanishi. *Science and Education*, 6(5), 340-344.
7. Rustamova, G. Z. X. Q., & Dilshoda, T. U. (2025). Keksalarni yosh chegaralari psixologik

muammo sifatida. *Science and Education*, 6(5), 356-361.

8. Goipova, N. B., & Erkinova, M. M. Q. (2025). Bola nutqini rivojlanishida eshitish va ko'rishning ahamiyati. *Science and Education*, 6(6), 741-744.

9. Olimjonovna, R. Z. (2024). EMOTIONAL INTELLEKT BOLAJAK MUTAXASSISLARNING MUHIM XUSUSIYATI SIFATIDA. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 5(41), 452-458.

10. Goipova, N. B. Q., & Uraimjonova, Z. I. Q. (2025). Nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari. *Science and Education*, 6(5), 387-392.

11. Shavkatova, X. S. Q., & Goipova, N. B. (2026). Inklyuziv ta'limning jamiyatda tutgan o'rni. *Science and Education*, 7(1), 1034-1037.